

Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-aprel oylarida, Namangan viloyatida jami 3516,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida, xususan, Namangan shaharda (744,4 mlrd so'm), Pop tumanida (208,0 mlrd so'm) va Chortoq tumanida (207,2 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	3516,6	107,9
Mingbuloq tumani	87,1	116,8
Kosonsoy tumani	177,2	102,5
Namangan tumani	156,4	102,5
Norin tumani	115,0	104,4
Pop tumani	208,0	143,9
To'raqo'rg'on tumani	131,1	103,0
Uychi tumani	199,6	102,6
Uchqo'rg'on tumani	164,8	105,9
Chortoq tumani	207,2	100,1
Chust tumani	120,5	111,9
Yangiqo'rg'on tumani	165,5	110,2
Namangan shahar shundan	744,4	110,4
Davlatobod tumani	274,3	117,8
Yangi Namangan tumani	184,9	115,5
Taqsimlanmagan	1039,8	110,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

**II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari**


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 82,3 % i yoki 2893,8 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **226,1** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 7,8 %;*

Kichik korxona va mikrofirmalar – **1168,2** mlrd so'm *hamda ulushi – 40,4 %;*

Norasmiy sektor – **1499,5** mlrd so'm *hamda ulushi – 51,8 %.*

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi %



2025-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Namangan shahar (569,2 mlrd so'm), Pop tumani (179,8 mlrd so'm), Uychi tumani (161,4 mlrd so'm) va Chortoq tumani (159,0 mlrd so'm) qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Yangi qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 164,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,9 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 156,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 14,4 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,1 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 17,1 % punktga kamayib 40,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 17,3 % punktga ko'payib, 56,8 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Namangan shahar (76,2 %), Pop tumani (73,8 %) va Chortoq tumani (74,0 %) kuzatildi.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 49,6 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,2 % punktga kamaydi 50,4 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Pop tumani (9,6 %), Chortoq tumani (9,4 %) va Uychi tumani (9,1 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,7 % punktga ko'paygan va 7,7 % ni tashkil etdi.

Qolgan 92,3 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,7 % kamaygan.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Namangan shahar (16,6 %), Pop tumani (16,5 %) va Chortoq tumani (15,6 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-aprel oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 294,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 169,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,0 % ga ko'payib, 8,4 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,6 % i to'g'ri kelib,

2024-yilning mos davriga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etgan holda 1711,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 43,0 % ni yoki 1510,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi. Shundan 1289,8 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 209,7 mlrd so'mni va 102,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 11,3 mlrd so'mni va 91,5 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	294,8	1711,0	1510,8	169,9	105,3	103,3
Mingbuloq tumani	2,7	57,8	26,6	39,2	120,6	135,3
Kosonsoy tumani	0,6	97,7	78,9	3,2	143,8	92,0
Namangan tumani	8,7	96,9	50,8	44,9	115,6	102,7
Norin tumani	0,8	54,5	59,7	17,4	124,6	96,8
Pop tumani	113,3	62,2	32,5	913,7	60,4	110,7
To'raqo'rg'on tumani	2,7	91,3	37,1	95,9	101,4	107,7
Uychi tumani	28,2	127,6	43,8	1039,3	85,5	103,2
Uchqo'rg'on tumani	12,1	95,1	57,6	50,0	125,4	103,7
Chortoq tumani	2,7	136,2	68,3	19,5	106,5	104,8
Chust tumani	5,9	52,9	61,7	221,2	114,5	104,8
Yangiqo'rg'on tumani	5,6	84,6	75,3	118,6	101,7	121,2
Namangan shahar	63,8	603,5	77,1	231,8	107,1	92,1
<i>shundan</i>						
Davlatobod tumani	19,7	245,4	9,2	711,2	111,0	102,0
Yangi Namangan tumani	31,9	142,0	11,0	-	95,2	99,0
Taqsimlanmagan	47,8	150,5	841,5	148,5	105,6	103,3

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Pop tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 9,1 marta), Namangan shaharda (231,8 %) va Chust tumanida (221,2 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 143,8 %), Uchqo'rg'on tumanida (125,4 %) va Norin tumanida (124,6 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 135,3 %), Yangiqo'rg'on tumanida (121,2 %) va Pop tumanida (110,7 %) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.